



4 YOSHDAN 12 YOSHGACHA BO'LGAN O'NAQAY VA CHAPAQAY (O'G'IL VA QIZ) BOLALARNING YUQORI MUCHALARIDAGI DINAMOMETRIK KO'RSATKICHLARINING QIYOSIY TAHLILI

Rustamova Nigina Baxshilloyevna

Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti

Annotasiya: *Tahlil 32-sonli umumta'lim maktabining 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan va 16- son maktabgacha ta'lim muassasasining 4 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan o'naqay va chapaqay (o'g'il va qiz) bolalarida o'tkazildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 4 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan o'naqay va chapaqay bolalarda jinsidan qat'iy nazar, dominant qo'l kuchi ikkinchi qo'lga nisbatan sezilarli darajada kuchli bo'lib, bu farq yosh kattalashgan sari oshib bordi.*

Kalit so'zlar: *mushak kuchi, dinamometriya, jinsiy demorfizm, dominant qo'l.*

Mavzuning dolzarbligi


Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra yer yuzidagi odamlarning 15,0% yoki har tug'iladigan bolalarning yettinchisi chapaqay hisoblanadi. Ilmiy manbalarda chapaqaylarning aksariyati buyuk iste'dod egalari, ammo ularning orasida intellektual salohiyati past bo'lganlari ham uchrab turishi keltirilgan. Hozirgi vaqtda, statistik ma'lumotlarga asosan, chapaqaylik ayollarga qaraganda erkaklar orasida ko'proq uchraydi. Ba'zi toifadagi «...odamlar orasida esa o'naqay va chapaqaylarga nisbatan inson qobiliyatlarining ideal va universal timsoli - bu ambidekster insonlar bo'lib, ular o'ng va chap qo'llari bilan bir vaqtda ikki xil harakatni bajara olishga qodir».

Tadqiqot maqsadi chapaqay va o'naqay bolalarda qo'l-panjalardagi dinamometriya ko'rsatkichlarini o'rganish.

Tadqiqot material va metodlari: tadqiqot 32-sonli umumta'lim maktabining 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan va 16- son maktabgacha ta'lim muassasasining 4 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan o'naqay va chapaqay (o'g'il va qiz) bolalarida

o'tkazildi. Shundan 250 nafari o'naqay bolalar (129 nafari o'g'il bolalar, 121 nafari qiz bolalar) va 89 nafari chapaqay bolalar (49 nafari o'g'il bolalar, 40 nafari qiz bolalar) bo'lib hisoblanadi. Bunda mushak kuchi (kg) dinamometr yordamida har bir qo'lda 3 martadan tekshiriladi.

Tadqiqot natijalari: 4 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan o'naqay o'g'il va qiz bolalarda dinamometriya ko'rsatkichlaridan olingan natijalarga ko'ra, bolalikning I davriga kelib, o'ng qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 5 yoshda (35,4%) eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. 7 yoshda (6,8%) eng kam ko'rsatkichga, chap qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 5 yoshda (80,8%) eng yuqori bo'lib, 6 yoshda (6,4%) eng kam ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bolalikning II davriga kelib esa, o'ng qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 10 yoshda (18,9%) eng yuqori bo'lib, 9 yoshda (11,8%) eng kam ko'rsatkichga, chap qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 9 yoshda (27,4%) eng yuqori bo'lib, 11 yoshda (10,0%) eng kam ko'rsatkichni qayd etdi. O'naqay o'g'il bolalarda bolalikning I davriga kelib, o'ng qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 5 yoshda (20,3%) eng yuqori bo'lib, 6 yoshda (8,5%) eng kam ko'rsatkichga, chap qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 6 yoshda (35,0%) eng yuqori bo'lib, 5 yoshda (17,6%) eng kam ko'rsatkichga ega bo'ldi (1-rasm).




1-rasm. 4 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan o'naqay o'g'il va qiz bolalarda dinamometriya ko'rsatkichlari (kg)



Bolalikning II davriga kelib esa, o'ng qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 12 yoshda (25,7%) eng yuqori bo'lib, 10 yoshda (16,7 %) eng kam ko'rsatkichga, chap qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 9 yoshda (33,3%) eng yuqori bo'lib, 10 yoshda (12,5%) eng kam ko'rsatkichni namoyon etdi.

4 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan chapaqay o'g'il va qiz bolalarda dinamometriya ko'rsatkichlaridan olingan natijalarga ko'ra, bolalikning I davriga kelib, o'ng qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 7 yoshda (18,5%) eng yuqori bo'lib, 6 yoshda (12,5%) eng kam ko'rsatkichga, chap qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 6 yoshda (11,1%) eng yuqori bo'lib, 7 yoshda (4,3%) eng kam ko'rsatkichga ega bo'lgan. Bolalikning II davriga kelib esa, o'ng qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 9 yoshda (29,7%) eng yuqori bo'lib, 11 yoshda (3,9 %) eng kam ko'rsatkichga, chap qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 9 yoshda (21,6%) eng yuqori bo'lib, 11 yoshda (3,9%) eng kam ko'rsatkichga ega bo'lgan.

Bolalikning I davriga kelib, o'ng qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 7 yoshda (32,0%) eng yuqori bo'lib, 6 yoshda (4,2%) eng kam ko'rsatkichga, chap qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 5 yoshda (25,5%) eng yuqori bo'lib, 6 yoshda (3,1%) eng kam ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bolalikning II davriga kelib esa, o'ng qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 9 yoshda (26,1%) eng yuqori bo'lib, 11 yoshda (5,6 %) eng kam ko'rsatkichga, chap qo'lidagi mushak kuchining ortishi bo'yicha o'sish ko'rsatkichining jadalligi 9 yoshda (26,9%) eng yuqori bo'lib, 11 yoshda (9,0%) eng kam ko'rsatkichni qayd etdi (2-rasm).



2-rasm. 4 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan chapaqay o'g'il va qiz bolalarda dinamometriya ko'rsatkichlarining solishtirma tahlili (kg)

Xulosa: 4 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan o'naqay va chapaqay bolalarda jinsidan qat'iy nazar, dominant qo'l kuchi ikkinchi qo'lga nisbatan sezilarli darajada kuchli bo'lib, bu farq yosh kattalashgan sari oshib bordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рустамова Н.Б., Тешаев Ш.Ж. Морфометрический анализ физических параметров детей правшей и левшей I-II периода детства // *Biologiya va Tibbiyot muammolari.* - № 4.2 (115) 2019.- С. 241-244.
2. Rustamova N.B., Teshayev Sh.J. Bolalikning I-II davridagi chapaqay va o'naqay bolalarning jismoniy ko'rsatkichlarining morfologik tahlili // *Tibbiyotda yangi kun.* - 2/1(30/1) 2020.- С. 51-53.
3. Rustamova N.B., Khasanova D.A. Comparative Characteristic of Morphometric Parameters in Right-Handed and Left-Handed of the II Period of Childhood // *American Journal of Medicine and Medical Sciences.* - 2023, 13(5): P. 656-658.
4. Rustamova N.B. Bolalikning II davridagi chapaqay va o'naqay bolalarning dinamometriya ko'rsatkichlari // *Tibbiyotda yangi kun.* - 2 (64) 2024.- С. 410-414.



5. Rustamova N.B. Bolalikning II davridagi chapaqay va o'naqay bolalarning morfometrik ko'rsatkichlarining qiyosiy xususiyatlari // Toshkent Tibbiyot Akademiyasi axborotnomasi.-№8, 2024.- C.137-140.
6. Rustamova N.B. Dynamometry Indicators of Children in the Second Period of Childhood // American Journal of Medicine and Medical Sciences.- 2024, 14(3): P. 646-648.
7. Рустамова Н.Б. Динамометрические показатели детей 2-го периода детства // O'zbekiston Harbiy Tibbiyoti.-№3, 2024.- С. 230-232.